



KORXONADA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI

Usmonov Abbas Valijon O'gli

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti magistranti.

Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari

2-kurs

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi vaqtida korxonalarda axborot xavfsizligini ta'minlashda olib borilyotgan jahon va milliy tajribalar yoritib o'tilgan. Undan tashqari maqolada axborot xavfsizligi tushunchasi uning muhiyati ham muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Axborot xavfsizligi, tahdidlar, viruslar, spamlar, kiberhujumlar

Dastlab biz axborot xavfsizligi tushunchasiga qisqacha izoh berib o'tsak. Axborot xavfsizligi bu axborot xatarlarini kamaytirish orqali axborotni himoya qilish amaliyotidir. Bu axborot xavfini boshqarish qismidir. Bu, odatda, ma'lumotlarga ruxsatsiz nomuvofiq kirish yoki qonunga xilof ravishda foydalanish, oshkor qilish, buzish, yo'q qilish, buzilish, o'zgartirish, tekshirish, yozib olish yoki qadrsizlanish ehtimolini oldini olish yoki hech bo'limganda kamaytirishni o'z ichiga oladi. Bu shuningdek, ushbu hodisalarning salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan harakatlarni o'z ichiga oladi. Himoyalangan ma'lumotlar har qanday shaklda bo'lishi mumkin, masalan, elektron yoki moddiy. Axborot xavsizligini ta'minlash bo'yicha dastlabki choralar qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirsak bo'ladi.

Ilgari vaqtida aloqa qilishning dastlabki kunlaridan boshlab diplomatlar va harbiy qo'mondonlar yozishmalarining maxfiyligini himoya qilish uchun biron bir mexanizmni taqdim etish va aniqlash uchun ba'zi vositalarga ega bo'lish kerakligini tushunib yetishdi. Bunga Yuliy Tsezar ixtirosi bo'lgan Qaysar shifrini v.asr misol qilib keltirsak bo'ladi. Miloddan avvalgi 50 yilda yaratilgan ushbu shifr, maxfiy xabarlar o'qilmasligi uchun xabar noto'g'ri qo'llarga tushmasligi uchun yaratilgan.

Hozirgi vaqtida korxonalarda yuzaga kelayotgan axborot xavsizligigi tahdid turli hil omillar natijasida yuzaga keladi. Bularga misol qilib korxona ishchilarining ichki axborot xavfsizligi qoidalariga roya qilmasligi, axborotni qabul qiluvchi va uzatuvchi qurilmalarining nosozligi, internet tarmog'idagi turli xil spam va virusli xabarlar shular jumlasaidandir. Ulardan himoyalananishning bir qancha yo'llari bor quyida biz bularni ko'rib chiqamiz.

Avvalo korxonada axborot xavfsizligini ta'minlashda ichki muhitni inobatga olish kerak. Hodimlar boshqaruviga alohida e'tibor berish kerak. Har bir xodim korxonaning ichki tartib qoidalariga so'zsiz bo'yishishi kerak. Bularga biz quyidagilarni misol qilib keltirsak bo'ladi. Hodimlar korxona ichki sirlarini tashqariga olib chiqmasliklari kerak. Ular korxona qonun qoidalariga roya qilishlari kerak. Endi korxonada ishlataliyotgan axborot qurilmalarini axborot tahdidlaridan himoya qilish choralarini ko'rib chiqsak. Hozir sir emaski internet tarmog'i orqali turli xildagi kiberhujumlar uchrab kelmoqda. Bunda hakerlar korxona axborot tizimiga internet tarmog'i orqli hujum uyuşdırıb kerakli ma'lumotlarni oladilar. Misol uchun bank hisob raqami to'g'risidagi ma'lumotlarni va o'z maqsadlari yo'lida foydalanadilar.

Endi oddiygina kompyuter viruslari va spamlar korxona axborot tizimiga qanday zarar keltirishi mumkinligi to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tsak. Kompyuter viruslari ular zamонавија biznes uchun haqiqiy xavf tug'diradi. Virusning korporativ tarmoq tugunlariga kirib borishi ularning faoliyatining buzilishiga, ish vaqtining yo'qolishiga, ma'lumotlarning yo'qolishiga, maxfiy ma'lumotlarning o'g'irlanishiga va hatto pul mablag'larining bevosita

o'g'irlanishiga olib kelishi mumkin. Korporativ tarmoqqa kirgan virusli dastur hakerlarga kompaniya faoliyatini qisman yoki to'liq nazorat qilish imkonini beradi. Spam bu bir necha yil ichida spam kichik bezovtalikdan xavfsizlikning eng katta tahdidlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda elektron pochta asosiy tarqatish kanaliga aylandi. Spam xabarlarni ko'rish va keyin o'chirish uchun ko'p vaqt talab etadi, xodimlarda psixologik noqulaylik hissi tug'diradi. Viruslardan saqlanishda biz antivirus dasturlaridan foydalansak bo'ladi. Lekin bu korxona uchun qo'shimcha xarajat ta'lab etadi. Chunki kuchli antivirus dasturlari pullik. Spamlardan himoyalanish esa oddiygina elektron pochtadagi nomalum xabarni ochmaslik bilan himoyalanish mumkin.

Hozirgi vaqtida axborot xavfsizligini ta'minlash nafaqat korxona faoliyatida, balki har bir informatsion texnologiyalardan foydalanuvchi boshqa soha vakillari uchun dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Shu boisb korxona faoliyatini bir maromda amalga oshirish uchun axborot xavfsizligini taminlash bu juda muhim masaladir. Gapimizni misol bilan davom ettirmoqchimiz. Bugun korxonalar o'rtasida raqobatni har jabhada ko'rishimiz mumkin. Har bir korxona raqobatda yutib chiqish uchun bor imkoniyatlarini ishga soladi. Bunga misol qilib bir korxona ishlab chiqaryotgan mahsulot tannarxini sir saqlashini aytib o'tishimiz mumkin. Agar bu oddiy jadval raqamli axborot tarzda saqlanyotganini xisobga olsak, bu axborotni yaxlit saqlash korxona uchun qanchalik muhimligini aytmasak ham bo'ladi. Bundan tashqari hozirdalikda faoliyat olib borayotgan yirik banklar hakerlar xujumiga uchrab kelayotgani ham sir emas. Yana bir misol bugun axborot texnologiyalari bilan birga kiberhujumlar ham rivojlanib, turlari ko'payib boryapti. Ayniqsa, hozir ijtimoiy injiniringni qo'llagan holda amalga oshiriladigan kiberhujumlar soni ortmoqda. Ulardan himoyalanish esa bugungi kunning dolzARB mavzularidan biridir.

Umuman olaganda axborot xavsizligini ta'minlashga to'siq bo'layotgan muommaolardan misol keltirib o'tsak. Hozirgi vaqtida axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy muommolariga biz axborotning ko'pligi va qayta ishlashning murakkabligini misol qilib keltirishimiz mumkin. Axborot oqimining ko'pligi uni himoya qilishga jiddiy to'sqinlik qiladi. Va asosiy muommolardan yana biri bu qaysi axborotni xavfsizligini ta'minlashni aniqlab olishdir. Xavsizlikni ta'minlashning asosiy muommolardan yana biri bu xavfsizlikni ta'minlavchi yagona tizimning mavjud emasligidir. Avvala aytib o'tganimizdek tashkilot axborot xavfsizligini boshqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan nimani himoya qilish kerakligiga bogliq.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki hozirgi vaqtada korxona axborot xavsizligini himoya qilish bu korxona faoliyatini bir maromda borishini ta'minlovchi asosiy omillardan bo'lib hisoblaniladi. Korxona axborot xavsizligini ta'minlashda hozirda zamonaviy qurilmalar va dasturiy ta'minotlar kata yordam beradi. Buni biz quyidagilar bilan izohlashimiz mumkin. Oddiygina korxona hududida yuzni tanib olish qurilmasidan foydalanish korxona axborot xavsizligini ta'minlashda yuqori samara berishi mumkin. Lekin bunday vositalardan foydalanish korxona uchun qo'shimcha harajat talab etishi mumkin. Bundan tashqari korhonadagi elektron qurilmalarga kalit so'zlarini o'rnatish ham elektron tarzda saqlanyotgan ma'lumotlarni himoya qilishda samara beradi.

Endi biz qisqacha korxona axborot xavsizlik tizimi to'g'risida to'xtalib o'tsak. Tashkilotning axborot xavfsizligi tizimi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi; tartibga soluvchi, tashkiliy (ma'muriy), texnik, dasturiy ta'minot. Har bir tarmoq o'zaro chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Ular o'zaro uzviy bog'liqdir.

Korxonada xavfsizlikning barcha sohalaridagi vaziyatni to'liq baholash uchun axborot resurslari xavfsizligi muammosiga tizimli yondashuvni belgilaydigan va maqsadlar, vazifalarni tizimli ravishda taqdim etadigan axborot xavfsizligi konsepsiyasini ishlab chiqish kerak. Albatta bu vaqt va harajat talab etadigan jarayondir.

Axborot xavfsizligini ta'minlash vazifasi tizimli ravishda hal qilinishi kerak. Bu shuni anglatadiki, turli xil himoya vositalari (apparat, dasturiy ta'minot, jismoniy, tashkiliy va boshqalar) bir vaqtning o'zida va markazlashtirilgan nazorat ostida qo'llanilishi kerak. Albatta bunga erishsa bo'ladi. Bu esa korhona faoliyatining rivojida kata hissa qo'shami. Yana biz shuni takidlab o'tishimiz kerakki bugungi kunda axborot xavfsizligiga kattta e'tibor berishimiz kerak. Chunki hozir axborot oqimini tartibga solish bugungi kunning dolzarb masalalridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'aniyev S. K. ,Karimov M. M., Tashev K. A. AXBOROT XAVFSIZLIGI AToshkent 2007
2. S.S. Qosimov Axborot texnologiyalari xaqida o'quv qo'llanma Toshkent 2007
3. G'aniyev S.K.Karimov M.M. Hisoblash tizimlari va tarmoqlarida axborot xavfsizligi Toshkent 2003